



TELEVIZION AXBOROT DASTURLARDA TASVIR VA MATN UYG'UNLIGI

Hatamov Mirjamol To'lakovich

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Bosma va ommaviy axborot vositalari va noshirlik ishi fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada televizion axborot dasturlarining tili va uslubi, mavzuga yondoshuv jarayonlari, axborot berishning uslublari, mualliflar qo'llaydigan janrlar, axborot tayyorlash madaniyatini yuksaltirish, uni auditoriyasini kengaytirish uchun yangicha shakl va uslublar, ta'sirchan vositalardan samarali foydalanish masalalarining dolzarbligi xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: informatsiya, televideniya tinglovchi, telenatqning diolog, monolog shakllari.

Jurnalist informatsion ko'rsatuvlarni tayyorlashda berilayotgan informatsiya mezonlari birinchi navbatda ijtimoiy yo'naltirilganligiga, shuningdek hujjatlilik, ixchamlilik, ommaboplik, qiziqtiruvchanlik, izchillik, uzviylik, axborot raqobatbardoshligi, sodda hamda tushunarli kabi asosiy jihatlarga e'tibor qaratmog'i lozim. Informatsion ko'rsatuv jihatlari quyidagicha izohlanadi:

1. Hujjatlilik – maxsus manbalardagi aniqlik, xolislik, haqqoniylikka suyangan holda, shu jumladan zarurat tug'ilganda, televideniya arxiv fondidan foydalanish va berilayotgan axborotning asosli ekanligini ko'rsatib berishdan iboratdir.

2. Ishonchlilik – berilayotgan har bir axborot tomoshabinda shubha-gumon tug'dirmaslik, axborot haqqoniy, xolis bo'lishi demakdir. Professor S.Muratovning ta'kidlashicha, “*ishonch axborotdan kelib chiqadi*”¹. Informatsion ko'rsatuvda berilayotgan har bitta xabar axborotning qiymatini belgilaydi, xabar manbai ishonchliligi, e'tiborlilik asosida baholanadi. Aynan shu tarzda informatsion ko'rsatuv auditoriyasi shakllanadi.

3. Dolzarblilik – axborot bugunning nuqtai nazaridan muhimligi, ahamiyatga egaligi, voqeaning dolzarbliligi yoki dolzarb emasligi ma'nosidagi tushuncha. Ushbu jihatlarni hisobga olmagan jurnalist ayrim hollarda dolzarb voqeani tezkorlik bilan yangilashirib qo'yadi. Bu, o'z navbatida, informatsion axborot qiymatiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

¹ Muratov S. Nrasstvennie prinsipi telejurnalistiki. // www.internews.ru/moral/9html.Plof2.nn 4.





4. Tezkorlik – axborotning eng asosiy tayanch qismi va asosidir. Axborot bir zunda informatsion ko'rsatuv orqali efirga uzatilsa, material saviyasi ortadi, ko'rsatuvning tezkorligiga ham ijobiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Tezkorlik jurnalistning asosiy prinsipi, ishga yondoshuvi, nazariy va amaliy salohiyatini belgilab beradi. Umuman olganda, OAV orqali axborot qanchalik tez uzatilsa, ta'sir darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

5. Qisqalik va mazmundorlik informatsion ko'rsatuvlardagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Qisqalik va mazmundorlik asosan "Axborot"ning kunduzgi dasturlari mezonlaridir. Mutaxassis fikri bilan qayd etadigan bo'lsak, *"informatsion axborot asosan quyidagi savollarga javob berishi lozim: qachon, qaerda, nima sababdan?"*¹

6. O'ziga xoslik – berilayotgan axborot jurnalist mahoratining mahsuli. Agarda xabar mazmuni quruq, loqaydlarcha yozilgan bo'lsa, bu jarayonda xabar o'z-o'zidan qimmatini yo'qotadi. Shuning uchun bunday vaziyatda jurnalist o'ziga xos uslubini namoyon qila olishi lozim. Misol uchun, timsoliy vositalardan foydalanishi, mantiqiyliги bilan auditoriyaga ta'sir eta oladigan so'zlarni ishlatishni bilishi kerak.

7. Izchillik – har bir axborotda tasvirlanayotgan voqea-hodisaning yangi tafsilotlari, yo'nalishlari va xususiyatlarini ma'lum qilib borish. Bir lahzalik, bir kunlik yoki muayyan muddat davom etadigan voqea va hodisalar aynan informatsion ko'rsatuvlarning asosini ta'minlaydi. Ushbu jihat "Axborot"da o'z aksini topgan.

8. Soddalik va tushunarliklik – bu jihat informatsion ko'rsatuvlarda asosan bo'lib o'ttan voqea tezkor axborot tarzida yetkazib berilishida ko'rinadi. Informatsion dasturlar matni ham aynan tezkorligiga qarab sodda va - eng muhimi - tomoshabin uchun tushunarli tarzda bayon etilishi kerak. Agarda matnni mahsus atamalar, turli xil ko'rsatmalar, murakkab ta'rifu tafsiflar bilan ifodalaydigan bo'lsak, birinchidan, "Axborot" dasturi uchun tayyorlanganligida o'z qiymatini yo'qotadi. Shu bilan bir qatorda auditoriyaning ayrim qismi jurnalist nima demoqchi bo'lganligini tushunmasligi mumkin.

9. Raqobatbardoshlik – aynan shu turdagi axborot informatsion ko'rsatuvlar o'rtasidagi kurashni keltirib chiqardi. Aytaylik, "Axborot", "Yangi Davr", "Poytaxt" informatsion dasturi bir manzildagi o'tayotgan ilmiy konferensiyani tasvirga oladi. Bu

¹ Toshaliyev I. Sarlavha stilistikasi. O'quv qo'llanma. – T.:Universitet, 1995.–30-b.





jarayonni uchta dastur uch xil talqinda yoritadi. O'z navbatida, ushbu jarayonni kuzatayotgan teleekran qarshisidagi tomoshabin baho berishi uchun qulay fursat tug'iladi. Mana shunday hollarda ko'rsatuvlar o'rtasida raqobatbardoshlilik kelib chiqadi va ko'rsatuv saviyasining oshishiga olib keladi.

10. Axboriy asos – informatsion ko'rsatuvlarda eng kerakli bo'lgan jihatlardan biridir. Ko'rsatuv efirga berilishidan oldin undagi ma'lumotlar yana bir bor ko'zdan kechiriladi va quyidagi savollarga javob izlanadi: *Axborot asosi aynan mana shu informatsiyada o'z qimmatini yuqotmadimi? Kadrlar sifatlimi? Berilayotgan intervyu aslida mavzuga mosmi?* Mavjud xatoliklar va kamchiliklar bartaraf etilgandan so'nggina informatsion ko'rsatuv efirga uzatiladi. Bu jarayonlar ko'rsatuvning bir kunlik axboriy asosini ta'minlaydi.

Informatsion ko'rsatuvlarni efirga uzatishda bevosita texnik ta'minot, tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Studiyada boshlovchi matnini o'qib berish jarayonini baholovchi shaxs rejissyor hisoblanadi. Chunki "suflyor"dan o'tayotgan har bir so'z, uning kerakli vaqtda qaysi kameraga qarashi va o'qib berish jarayonini rejissyor hal etadi.

Rejissyorning "yon qo'li" bo'lgan tasvirchi mahoratini ham alohida e'tirof etish lozim. Tasvirchi ekranga chiqayotgan har bir ko'rsatuv uchun javob beruvchi shaxs. Darhaqiqat, suratga olish jarayonida kadrlarning sifatli chiqishida bevosita tasvirchi javobgar hisoblanadi. Kichik texnik xatolik ham ba'zida mavjud kamchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan ham efir oldi har bir kamera va yoritish chiroqlari faoliyati ko'zdan kechirilib, undan so'ng tasvirga olish jarayoni boshlanadi.

Teleboshlovchi matni efirga yozilgandan so'ng kadr har bir o'qilgan xabar, yangilik, reportajga moslab yopiladi, ya'ni berilayotgan ma'lumotga tasvir va mavzu mos va hamohang bo'lishi zarur. Tayyorlanish jarayoni tasvirga olinish jarayonidagi ayrim kamchiliklar montaj hodimlari tomonidan bartaraf etiladi. Mana shu vaqtda yana bir bor bo'lishi mumkin kamchiliklar ko'zdan kechiriladi. Ayrim faktlardagi raqamlar noto'g'riligi yoki gap jurnalist adabiy til me'yorlariga to'lik rioya etmagan holda o'qiganligi tufayli tomoshabin uchun tushunarsiz bo'lsa, shu vaqtda bartaraf etiladi. Har bir ko'rsatuv qanchalik tezkor, aniq va sifatli tayyorlansa, ko'ruvchilar auditoriyasi ortib boraveradi, demakki, tomoshabin ishonchini qozona bilishda bu ham muhim jihat hisoblanadi.





Televidenie tili o'zbek adabiy tilining so'zlashuv uslubiga mansub. U taxririyl jarayondan o'tadi, aksariyat hollarda o'zining yozma – matniyl nus'hasiga ega bo'ladi. Informatsion ko'rsatuvlarda talaffuz maromi sekin yoki o'rtacha muloqotda so'z to'liq fonetik qiyofasi bilan aniq va ravon aytiladi, maromi tez talaffuzda lafz turli tovush o'zgarishlariga uchrashi, qisqarishi, noto'g'ri aytilishi mumkin. Shu bois, telejurnalistning nutqiy mahorati lafziyl uslub maromini to'g'ri belgilab olishi bilan ham bog'liq. Chunonchi, tantanalarga oid vaziyatlarda yuqori lafziyl uslub marom talab qilinadi. Bayram tantalariga oid chiqishlarda matn asosan tajribali suxandon tomonidan ko'tarinki ruhda o'qib beriladi. Kundalik voqea – hodisalarga oid axborotlar odatdagi o'rtacha so'zlashuv talaffuzi maromida o'qib beriladi. Shuningdek, telenutq vaziyatga qarab yuqori, odatiy va betaraf fonostilistik maromlarga muvofiq shakllanishi mumkin. Madaniyl – marifiyl lavhalarning nutqi sekin, tekis tezlikda, o'rtacha ifoda hajmidagi sintogmatik bo'linishlar va to'xtalishlar, ajratuvchi, ta'kidlovchi urg'u va oxang bilan tavsiflanadi. Hayajonli nutqda odatda 2-3 bo'linishli ifodalardan keyin ajratuvchi urg'u ishlatiladi, to'rt va undan ortiq qisimli ifodalardan keyingi to'xtalish nutqning ruhini yanada kuchaytiradi. Ifodalar o'rtasidagi til odatdagidan biroz davomliroq bo'ladi. "Informatsion ko'rsatuvlarning o'qilish uslubi o'rtacha va katta hajmli ifodalar o'rtacha tezlikda tekis ohangda bayon qilinadi" [2,43]. Nutq qismlari aro ajratuvchi urg'u va til bir xilda taqsimlanadi hamda boshqa turdagi urg'ulardan keskin ajralib turmaydi. O'rtacha ovoz balandligi axborot oxirigacha bir xilda saqlanadi. To'xtalish miqdori ham, u yoki bu ifodani alohida ta'kidlash yohud saqlashi kabilar nutq sohibining xis-tuyg'ularidan, aytilayotgan fikrga tinglovchiga yoki tomashabinga munosabatidan, muloqot vaziyatining o'ziga xosligidan darak beribgina qolmay, balki aniq, tezkor va jiddiy tarzda ifoda etilishi lozimdir.

"Nutqiy-tashviqiy ta'sirning kuchayishiga og'zaki ommaviyl muloqot, televideniening o'rni alohida – auditoriya nihoyatda kengaytirishga xizmat qiladi" [3,45]. Nutqiy ta'sir ikki yo'nalishga ega:

1. Ijtimoiyl-manaviyl maqsad nutq tarkibini ham, mazmunini ham belgilaydi.
2. Jamiyat ongini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Informatsion ko'rsatuvlarning matni, qismlari muallif maqsadining ifodasi bo'lgan nutq amallari sifatida ham namoyon bo'ladi. Matn muallifi muloqot jarayonida, eng avvalo, axboriyl muammo uchun zarur vaziyatni belgilash, mavzu va muammoni ma'lum qilish, ularni tahlil va talqin etish, ijtimoiyl-axloqiy qiymatini





baholash va targ'ib qilish, e'tiborni jalb etish va faxmlash asnosini boshqarish vazifalarini nutqiy ifoda shakllari va usullarida aks ettira olishi lozim. Ba'zi hollarda teleboshlovchilarning ayrim so'zlar va uzun jummalarni talaffuz eta olishmasligiga guvoh bo'lamiz. Masalan: axborot dasturida efirga berilgan viloyat muhbirlari tayyorlagan lavhalarda, ayniqsa, ushbu holat ko'p va xo'p kuzatiladi.

Xulosa o'rnida, har bir informatsion mavzuni axborot ommasiga yetkazishda jurnalistning uslubi, mavzu ko'lamidan foydalana bilishi, bilimi, saviyasi tufayli har qanday sohada olib borilayotgan islohotlarni yetarlicha yoritishi mukammal mahsulot yaratilishiga sabab bo'ladi. Informatsion ko'rsatuvlarning muhbirlari amalga oshirilayotgan islohotlarni auditoriyaning talab va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda publitsistik teleijodning axborot yetkazib berish va tahliliy usullaridan samarali foydalanib yoritib borishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshaliyev I, Abdusattorov R, Mahmudov S. Ommaviy axborot vositalarining tili. – T.: “Universitet”. 2000 yil. 4- bet. 107
2. Toshaliyev I. Sarlavha stilistikasi. O'quv qo'llanma. – T.:Universitet, 1995.–30-b.
3. Muratov S. Nrstvennie prinsipi telejurnalistiki.
[//www.internews.ru/moral/9html.Plof2,nn](http://www.internews.ru/moral/9html.Plof2,nn)
4. Toshaliyev I, Abdusattorov R, Mahmudov S. Ommaviy axborot vositalarining tili. – T.: “Universitet”. 2000 yil. 43- bet.
5. Toshaliyev I, Abdusattorov R, Mahmudov S.4Ommaviy axborot vositalarining tili. –T.: “Universitet”. 2000 yil. 45-bet.

